

XVI ASR MANBALARIDA SHAYBONIY IJODKORLAR TASVIRI

T.Yu.Oydinov,

SamDCHTI o‘qituvchisi

Annotatsiya. XVI asrda ko‘plab tarix va tazkira asarlar yaratildi. Shu davrda Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Muhammad Haydar mirzoning “Tarixi Rashidiy”, Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” kabi asarlari yaratildi. Ularda ko‘pgina ijodkorlar qatori shayboniy qalam sohiblari haqida ham ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: tarixiy manba, badiiy olam, ijodkor tabiat, mahorat, adabiy-tanqidiy qarashlar.

XV asr va XVI asrning birinchi yarmida madaniy hayot, ilm-fan, san’at va me’morchilik taraqqiy etdi. Ayniqsa, astronomiya, geografiya va meditsina fanlari yuksak takomilga erishdi. O’nlab ilmiy asarlar olimlar tomonidan kashf etildi. Bundan tashqari, Hirot, Buxoro, Samarcand va Toshkentda katta-katta me’moriy obidalar, masjid-u madrasalar bunyodga keldi. Mamlakatda xalq xo’jaligining tiklanishi bilan bir qatorda naqqoshlik, musiqa va badiiy adabiyot ham taraqqiy etib bordi.

Fasohat mulkinining sohibqironi Mir Alisher Navoiy ijodi mahsuli bo‘lmish o’nlab asarlari XV asr o‘zbek adabiyotining nodir namunalariga aylandi. Shunindek XVI asrda ko‘plab tarix va tazkira asarlar yaratildi. Bunga misol qilib Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Muhammad Haydar mirzoning “Tarixi Rashidiy”, Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” kabi asarlarini ko‘rsatish mumkin. Ularda ko‘pgina ijodkorlar qatori shayboniy qalam sohiblari haqida ham ma’lumotlar berilgan. Masalan, “Boburnoma”da muallif Shayboniyxon, uning o‘g‘li Xurramshoh haqidagi ma’lumotlarni keltirib o’tgan. Ushbu ma’lumotlarni biz tanqidiy baholab o‘rganishimiz lozim. Chunki Bobur nima haqida va kim haqida yozmasin, g‘oyat samimiyyidir. O‘zining quvonchini ham, g‘amini ham hech kimdan yashirmay, ro‘y-rost aytadi. Do‘sti haqida ham,

dushmani haqida ham ko‘nglidagini so‘zlaydi. To‘g‘ri, dushmanlari haqida yozganida, goho alam zo‘rlk qilib, xolislikdan chekingan o‘rinlar ham uchraydi. Buni uning Shayboniyxonga bergan tanqidiy bahosida ochiq ko‘rish mumkin. Tarixdan ma’lumki, Shayboniyxon Boburning Movarounnahrdan butunlay ketishiga sabab bo‘lgan shaxsdir. Har ikki shaxsning munosabatlarini o‘rganishda va ularning tarixini to‘laqonli yoritishda tarixiy manbalarni sinchiklab tadqiq etish lozim bo‘ladi. Mirzo Boburning Shayboniyxonga bo‘lgan munosabatlariga kelsak, buni hodisa sifatida qabul qilish lozim bo‘ladi. Bobur Shayboniyxonga nisbatan dushmanlik munosabatini ham yashirmaydi. O‘zining oliv maqsadlariga to‘sinqinlik qilgan bu shaxs (Shayboniyxon)ni faqat salbiy bo‘yoqlarda tasvirlaydi, salbiy tomonlariga e’tiborini ko‘proq qaratadi.

Shunday bo‘lsa-da, asar muallifi Muhammad Shayboniyxon haqida ayrim o‘rinlarda ijobjiy fikrlar ham bildirganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. “Shayboniyxon bir navbat soz buyurur, takalluf qilib ham yomon cholur, ham o‘z sozini kelturmay, yaramas soz kelturur. Shayboniyxon fahmlar, buyururkim, suhbatda-o‘q g‘alaba gardanig‘a urarlar. Shayboniyxonning olamda bir yaxshi ishikim bor budur, filvoqi xo‘b bordur. Ushmundoq nozuk mardaklarga mundin ko‘prak sazo kerak”, [1, 140] - kabi ma’lumotlarni uchratish mumkin.

Shayboniylar haqida Muhammad Haydar mirzoning “Tarixi Rashidiy” asarida esa ayrim ma’lumot berib o‘tilgan. Jumladan, asarda shayboniylarni hukmronligi, yurishlari haqidagi ma’lumotlarni uchratish mumkin. Masalan, Muhammad Shayboniyxonning salbiy xususiyatlaridan biri sifatida Muhammad Haydar mirzoning otasini o‘ldirganligi o‘zining ham boshqalar qatori o‘ldirishga buyurganligi haqida asarning o‘n beshinchi fasli “Kitob muallifiga taalluqli voqelar bayoni”da [2,319] aytib o‘tilgan. “Shohibekxon otamni shahid qilgandan keyin Buxoroga odam yuborib, Xo‘jand daryosiga g‘arq qilganlar qatoriga qo‘sish uchun meni daryoga tashlattirmoqchi bo‘ldi. Garchi bu buyruqni bajarish opamni eri Ubaydulloh sulton uchun og‘ir bo‘lsa-da, buni rad qilishga unda umuman imkon yo‘q edi”. [2, 319]

Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” asarida ham shayboniyalar haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan. Ushbu asar yuqoridagi asarlardan shayboniyalar haqidagi ma’lumotlarning kengroq berilishiga ko‘ra farq qildi. “Muzakkiri ahbob” tazkirasining birinchi rukni birinchi faslida muhim ma’lumotlarni uchratish mumkin. Masalan, shayboniyalar sulolasining asoschisi Muhammad Shayboniyxon ta’rifiga badiiy sifatlashlardan unumli foydalanib baho berilgan, uning hukmdorlik faoliyatining boshlanishiga oid bashoratlari voqealarni keltirib o‘tgan: “Va oliynishon xon Muhammad Shayboniyxon Amir Abdulali Tarxon zamonida Buxoro mulkida sokin bo‘lganlar. Ayrim munofiq badkirdorlar tuhmatlar qilib, u kishini yashayotgan o‘z joyidan chiqib ketish darajasiga yetkazganlar va shunda xon hazrat hojai buzrugvor Bahouddin Naqshbandiyning nurga to‘la mozori atrofiga borib, xojai buzurgvor nabirasi- olujoh, hidoyatpanoh Nizomiddinxoja Mir Muhammad Naqshbandiy xizmatlari sharafiga musharraf bo‘lgan. Tavof va xizmat sharafidan so‘ng esa ketishga ruxsat so‘raganlar, xoja Mir Muhammad bo‘lsa, biz sizga darhol javob beravermaymiz, deganlar. Shundan so‘ng biroz muddat o‘sha nurga to‘la mozor yonida bo‘lganlar va tahajjo‘d namozini savma’da o‘qib yurganlar. Bir kuni xoja Mir Muhammad debdilarki, “g‘ayb kalitlari uning oldida” bo‘lgan buyuk fattoh o‘z ochqichlaridan bir kalitni kifoyatli kaftingizga qo‘yadigan ko‘rinadi. Ammo bu ishning yuzaga chiqishi Turkiston viloyati taraflarida ro‘y berajak. Va ular bashoratlari ishoratga rioya qilgach, deyarli o‘n ikki yil davomida Turkiston viloyatidan Domg‘on (Xuroson) chegarasigacha yerlarni o‘z tasarrufi doirasiga kiritib, dorussaltana Hirot va Samarqand o‘z humoyun otlariga xutba o‘qitganlar va izzat-u baxt taxtida shodmon o‘lturunganlar. “Aytgil, ey xudoyim mulk podshohi sensan, uni xohlagan kishingdan olasan va xohlagan kishingga berasan ”. [3, 19-20]

Muallif o‘z asarida Muhammad Shayboniyxonning fozilligiga alohida to‘xtalib, salohiyatiga yuksak baho bergan, ijodidan namunalar keltirib o‘tgan. “Sohibqiron xon ilm-u fazilatlardan xabardor, aniqrog‘i, ularni to‘la egallagan kishi edi. She’riyat sohasi va shoirlarga e’tiqod-e’tibori katta bo‘lgan. Yaxshi

she’rlari bor. Hazrati shayx Najmuddin Kubroning – unga Tangri rahmati bo‘lsin – vafoti ta’rixini yaxshi aytgan. Ta’rix:

Oning ta’rixidur shahi shuhado,

Yana bir alif birla bo‘lur ado.

Bu tuyuqni ham manzur bo‘larlik aytgan:

So‘g‘d ichida o‘ltururlar yobular,

Yubularning mingan oti yobular,

Yubularning ilgidan el tinmadi,

Yo bular bo‘lsin bu yerda, yo bular”. [3, 20]

Hasanxoja Nisoriy Shayboniy turkiy til qonunlarining yaxshi bilishini bir voqeani keltirish orqali alohida ta’kidlab o‘tgan. “Deydilarki, xon Hazora qal’asi fathiga otlanganda bir g‘azal bitib, Hiri shayxul islomi va Qozi Ixtiyorga yuboribdi. Mana bu bir necha bayt o‘sha g‘azaldan bitilayotir. Bayt:

Mandin salom ul shayxu Ixtiyorg‘a,

Na Ixtiyorkim, ul chug‘ul, rishvaxorg‘a.

Tangri inoyati bila qavmi hazorani,

Andoq qilayki, tajriba bo‘lsin hazorg‘a.

Qozi Ixtiyor turkiy tilni bilmas ekan, uni uchun turkiy til qonun-qoidalari kitobini bitib yuboribdi”. [3, 21]

Xulosa qiladigan bo‘lsak, shayboniyalar sulolasiga o‘z davrida alohida o‘rin tutgan. Ayniqsa, Shayboniy hukmronlik qilgan davr ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayot o‘ziga xos tarzda shakllangan. Bu voqealar Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Muhammad Haydar mirzoning “Tarixi Rashidiy”, Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri axbob” asarlarida turlicha talqin etilgan va ulardagi ma’lumotlarning har biri ahamiyatli va qiymatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. –Тошкент, Ўқитувчи, 2012. -286 б.
2. Мухаммад Ҳайдар Мирзо. Тарихи Рашидий. – Тошкент, Шарқ, 2010. 719 б.

3. Ҳасанхожа Нисорий. Музаккири аҳбоб.-Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси, 1993. 342 б.
4. Адабиётшунослик терминлари лугати. –Тошкент, Ўқитувчи, 1967. – 299 б.
5. Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. –Тошкент, Ўқитувчи, 1980.
6. Заҳирiddин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. –Тошкент, Шарқ, 2002. – 335 б.
7. Мамирова, Д. (2018). Реклама матнларининг ўзига хос хусусиятлари ҳақида айрим мулоҳазалар. Иностранный филология: язык, литература, образование, 3(3 (68)), 56-59.
8. Rasulovna, S. D. (2021, December). Qisqalik-samarali tibbiy reklama yaratishning muhim omili. In Conferences.
9. Мамирова, Д. Ш. (2020). REKLAMA MATNLARINING TIL XUSUSIYATLARI. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(4).
10. Pardaeva, I. M. (2014). ON THE EXAMPLE OF THE ARTISTIC AND HISTORICAL PROSE OF NAVOI IN TURKISH. The Way of Science, 73.
11. Mamayunusovna, P. I. (2022). Utterance of Kings in Classical Literature. Thematics Journal of Social Sciences, 8(4).
12. Каримова, С. (2021). Форс-тожик тилидаги янги адабиётда ҳиндий сабк. Иностранный филология: язык, литература, образование, (1 (78)), 23-26
13. Rakhmatova, D. (2020). MAKHMUDKHUJA BEKBUDI AND LANGUAGE ISSUE. Интернаука, 24(153 часть 3), 11.